

Sattorxon Abdug'afforov (1843-1901)



Sattorxon Abdug'afforov (1843-1901)

Sattorxon Abdug'afforov (1843, Chimkent — 1901, Toshkent) — ma'rifatparvar, tarixchi. Yirik ulamo (mudarris) oilasida tug'ilgan. Toshkentdagi Shukurxon madrasasini tugatgan (1862). Arab va fors tillarini yaxshi bilgan, rus tilini o'rgangan.

1864 yilgacha Chimkent shahar muftiysi, 1873—76 yillarda Chimkentdagi birinchi rus-tuzem maktabi o'qituvchisi. 1876 yil aprelda Qo'qon shahar qozisi etib tayinlangan. Sattorxon Abdug'afforov qozilik lavozimidan ma'rifatparvarlik g'oyalari targ'ib qilish yo'lida foydalangan, dunyoviy bilimlarni targ'ib qilgan, natijada ruhoniylar tomonidan qattiq ta'qib ostiga olingan. 1881 yil Sattorxon Abdug'afforov Qo'qonni tark etishga majbur bo'lgan.

1883 yil «Turkiston viloyatining gazetisi»ga ishga kirgan, Yevropa madaniyati va dunyoviy bilimlarni targ'ib qiluvchi bir qancha maqolalar yozgan. 1884—89 yillarda Toshkent o'qituvchilar seminariyasida o'zbek va fors tillaridan dars bergan.

Sattorxon Abdug'afforov rus imperatorining maorif sohasidagi ayrim tadbirlarini tanqid qilgan. 1899 yilgacha Chimkent qozisi bo'lib ishlagan, keyin Toshkentga qaytib kelgan.

Sattorxon Abdug'afforov o'zining ma'rifatparvarlik faoliyatini Furqat, Muqimiy, Zavqiylar bilan hamkorlikda olib borgan. Sattorxon Abdug'afforovning ijtimoiy qarashlari uning «Musulmon eshonlari», «Rossiya istilosiga qadar Qo'qon xonligining ichki ahvoli haqida ocherk» nomli risolalarida, ko'pgina maqola va nutqlarida o'z ifodasini topgan.

2023-09-07 15:42:38